



**KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING
MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O'RNI**

Nuritdinova X.N.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7445213>

Annotatsiya. Maqolada talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmun mohiyati, talaba-yoshlarning kommunikativ kompetentligini yuksaltirish tizimi samaradorligini ta'minlash hamda kommunikativ kompetensiya haqida olimlarning qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ, kompetensiya, pedagogik-psixologik, mexanizmlar, bilimlar, malakalar, tajriba, kognitiv.

Аннотация. В статье описано содержание развития коммуникативной компетенции студентов, обеспечение эффективности системы повышения коммуникативной компетенции студентов и взгляды ученых на коммуникативную компетентность.

Ключевые слова: коммуникативные, компетентностные, педагогико-психологические, механизмы, знания, умения, опыт, познавательные

Annotation. The article describes the content of the development of the communicative competence of students, ensuring the effectiveness of the system for improving the communicative competence of students and the views of scientists on communicative competence.

Key words: communicative, competency-based, pedagogical-psychological, mechanisms, knowledge, skills, experience, cognitive.

Oliy ta'lim muassasalarida so'ngi yillarda yoshlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning dasturiy-metodik va moddiy-texnik bazasini shakllantirish, jahonning nufuzli oliy ta'lim muassasalari tajribasi asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda milliy, madaniy va tarixiy an'analardan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifalari ustuvor etib belgilandi. Bu borada oliy ta'lim talabalarining kommunikativ kompetentligini yanada rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadli tadqiqotlardan hisoblanadi.

Ilmiy manbalarning tahlili bizni har qanday ta'lim pog'onasining bitiruvchisi egallagan bo'lishi shart bo'lgan asosiy, kalit kompetentliklardan biri kommunikativ kompetentlik ekanligiga ishontiradi, zero o'z kasbiy faoliyatida





bo'lajak mutaxassis, muloqotning faol subyekt sifatida: turli xil odamlar bilan muloqot qila olishi, ularni o'z fikr, g'oyalarning to'g'ri, adolatli ekanligiga ishonтира olishi, o'z professional nuqtai nazari, qarashlarini himoya qila olishi, kommunikativ malakalarni egallagan bo'lishi, nizo va ziddiyatlarni yechib, hal qila olishi, o'z holati va ahvolini tartibga sola olishi shart.

Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayoni mexanizmlarini biz muloqot jarayonini uchta: kommunikativ, interfaol va perseptiv kabi o'zaro aloqador komponentlarning birligi sifatida G.M. Andreyeva, A.A. Bodalev, A.A. Leontyev, B.F. Lomov, D.A. Petrovskaya va boshqa olimlarning asarlari asosida; B.G. Ananyev, A.A. Bodalev, A.A. Brudniy, A.A. Leontyev, V.N. Myasishev, A.V. Mudrik va boshqalar ta'lim samaradorligini oshiradigan shart sifatida o'rgangan olimlar asarlari asosida o'rgandik.

Pedagogik psixologiya sohasidagi tadqiqotlarning tahlili kommunikativ kompetentlik shaxslar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va saqlab qola olish (qo'llab-quvvatlash) qobiliyati sifatida Yu.N. Yemelyanov, Yu.M. Jukov, Ye.S. Kuzmin, L.A. Petrovskaya, P.V. Rastyannikov va boshqalar tomonidan o'rganilgan;

Talabalarning kommunikativ kompetentlikni shakllantirish muammosini yechish quyidagi holatlar orasidagi ziddiyatlarni yengib o'tish zarurati bilan bog'liq:

- oliy maktabga yuqori darajada rivojlangan kommunikativ kompetentlikka ega professionallarni tayyorlashga qaratilgan (mo'ljallangan, maqsad qilgan) ta'lim siyosatini amalga oshirishga bo'lgan "ijtimoiy buyurtma" va OTMlarda bu sifatni ta'minlamaydigan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning o'rnatib bo'lingan tizimi orasida;
- og'zaki va yozma kommunikasiya sohasida yuksak madaniyatni, kasbiy (professional) va kasbiy bo'lmagan (noprofessional) muloqotning samaradorligini ta'minlaydigan malakalarni egallagan, professional o'zaro faoliyatda shaxslararo munosabatlarni qura olishga qodir professionallarga bo'lgan o'tkir/jiddiy zarurat va oliy ta'lim tizimining bunday mutaxassislarni tayyorlashga tayyor emasligi orasidagi ziddiyat;
- Kommunikativ kompetentlikning mohiyati va uning mutaxassisning kasbiy shakllanishidagi o'rne va rolini aniqlash muammosiga qaytsak, bir qator tadqiqotchilar, xususan Ye. Maksimov, shaxsning kommunikativ potensialining tarkibiy qismi sifatida ajratishadi, va o'z navbatida, bu potensial shaxsning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlilik darajasini belgilaydi. Ye. Maksimov shaxsning kommunikativ potentsiali muloqotga bo'lgan ehtiyojning



rivojlanganligini, muloqot usuliga munosabatini tavsiflaydigan shaxsning kommunikativ xossalari; muloqotda tashabbusni o'z qo'lida tuta olish qobiliyati, faollik namoyon qilish qobiliyati, muloqot sheriklari holatiga emosional javob bera olish, muloqotning o'z individual dasturini ifodalash va amalga oshirish qobiliyati, muloqotda o'ziga mustaqil turkti berish– shaxsning kommunikativ qobiliyatlari; hamda muloqotning me'yorlari va qoidalarini bilish, uning texnologiyalarni egallaganlik sifatida qaraladigan shaxsning kommunikativ kompetentlikni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi.

- Shunday qilib, fikrlarimizga yakun yasab, biz uchun tubdan muhim qarashlarni qayd qilish zarur.
- Birinchidan, biz kommunikativ kompetentlikni zamonaviy insonga faoliyat turidan qat'iy nazar zarur bo'lgan asosiy kompetentlikdan biri sifatida qayd qilamiz.
- Ikkinchidan, kommunikativ kompetentlik uni ikki tomonlarning – lisoniy xulq atvorning o'zi va kommunikativ xulq atvor bilan birgalikda o'rganishni taqozo etadi.
- Uchinchidan, bizning fikrimizcha, kommunikativ kompetentlikni mutaxassisning umumiy kasbiy kompetentligi strukturasi mustaqil bir blok sifatida fikrlab tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.-O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70- modda.
2. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
3. Гутник Е. П., Шереметьева Е. В. Современные теоретические представления о коммуникативных компетенциях // Молодой ученый. 2016. №27.
4. Езова, С.А. Коммуникативная компетенция // Научные и технические библиотеки. 2008.

